

HARAKATLI O'YINLARNING KELIB CHIQUISH TARIXI.**TMC insitituti MTS23-101 guruh talabasi:****Rashidova Xumora Samug qizi.****Fan o'qituvchisi: Eshmamatova Sitora.****Annotatsiya:**

Ushbu maqolada harakatli o'yinlarning qadimiy jamiyatda shakllanishi, ularning rivojlanish bosqichlari, xalq an'analaridagi o'rni hamda zamonaviy ta'lim va sport tizimidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Harakatli o'yinlarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar:Harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya, qadimgi sivilizatsiyalar,ovchili va mehnat faoliyati, Xalq o'yinlari, kurash, chavgon , traditsion o'yinlar.

Kirish:

Harakatli o'yinlar insoniyat tarixining eng qadimiy qatlamlariga borib taqaladigan jismoniy mashg'ulotlar majmuasidir. Ular dastlabki tirik qolish,ovchilik va mehnat jarayonlariga tayyorgarlik vazifalarini bajarib,keyinchalik ijtimoiy,tarbiyaviy va marosimiy ahamiyat kasb eta boshlagan.bugungi kunda harakatli o'yinlarjismoniy tarbiya va sportning ajralmas qismi, bolalar rivojlanishining muhim pedagogic vositasidir. Ularning paydo bo'lishi va taraqqiyot jarayonlarining o'rganish jismoniy madaniyat tarixini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi- harakatli o'yinlarning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning qadimgi jamiyatlar hayotidagi o'rni va zamonaviy jismoniy tarbiya tizimidagiahamiyatini ilmiy asosda o'rganish.

Asosiy qism

Harakatli o'yinlarning qadimgi zamonlarda paydo bo'lishi.

Antropologik va arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,insonning dastlabki jismoniy faoliyati hayotiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan.Yugurish, sakrash, uloqtirish, kurashish kabi harakatlar avval instinktiv, keyinchalik esa o'yin va

musobaqa shaklini ola boshladi. Qadimgi qabilalar hayoti o'yinlar marosimiy xarakteriga ega bo'lib, tabiat hodisalariga taqlid, urug' kuchini namoyish etish yoki qabila bayramlarida ijro etilgan.

Afrika, Osiyo va Amerika qabilalarining etnogarfik materiallari o'yinlarning hayvonlarga taqlid qilish, tabiat bilan kurashish va jismoniy sinovlar ko'rinishida bo'lganini ko'rsatadi. Demak, o'yin dastlab mehnat va hayot uchun zarur harakatlarning takrorlanishidan vujudga kelgan.

Sharq sivilizatsiyalarida harakatli o'yinlar.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida o'yinlar jismoniy tarbiya, harbiy tayyorgarlik va ma'naviy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan.

Qadimgi Misrda yugurish, kurash, tosh ko'tarish rasmlari ibodatxona devorlarida aks etgan. Ular ko'pincha marosimiy musobaqalar sifatida o'tkazilagan.

Xitoyda miloddan avvalgi III ming yillikda "tsutsyu" deyiluvchi to'p o'yini mashhur bo'lgan. Bu o'yin zamonaviy futbolning ilk ko'rinishi sifatida qaraladi.

Hindistonda "kabaddi", "mallaxamba" kabi harakatli o'yinlar yoshlarni epchillik va jasoratga o'rgatgan.

Maekaziy Osiyoda kurash, ot o'yinlari, chavgon, o'q otish sayillarining ajralmas elementi bo'lib, xalqning harbiy va ma'naviy hayotida karra o'rin egallagan.

Bu o'yinlar keying davrlarda xalq an'analari orqali boyib, hozirgi xalq o'yinlarining asosini tashkil etgan.

Qadimgi Gretsiya va Rimda harakatli o'yinlarning rivoji.

Qadimgi Gretsiya jismoniy madaniyatining ilgo'r markazi bo'lgan. Yunonlar o'yinlarni insonning har tomonlama kamolotini ta'minlovchi tarbiya vositasi sifatida baholaganlar. Miloddan avvalgi 776-yilda tashkil etilgan Olimpiya O'yinlari harakatli o'yinlarning yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Yugurish, disk otish, nayza uloqtirish, kurash va sakrash kabi mashqlar musobaqa shaklida otkazilgan.

Rim imperiyasida harakatli o'yinlar asosan harbiy tayyorgarlikka qaratilgan edi. To'p o'yinlari, nayza uloqtirish, qilichbozlik mashqlari legionerlar tayyorgarligining

asosiy qismiga aylangan. Greklarning sport an'analari Rim orqali Yevropaga keng tarqalgan.

O'rta asrlar davrida o'yinlarning ommalashuvi va tarbiyaviy ahamiyati.

Har bir xalqning harakatli o'yinlari uning turmush tarzi, iqlimi, mehnati va urf-odatlaridan kelib chiqqan. O'yinlari ko'pincha xalqning axloqiy qadriyatlari, jasoratlari va mehnatsevarlik an'analari aks etgan.

Xalq o'yinlarining asosiy funksiyalari :

1. Jismoniy rivojlantirish-kuch, chaqqonlik, epchillikni oshirish.

2. Iltimoij ko'nikmalarni shakllantirish-jamoada ishlash, raqobat madaniyati, intizom.

3. Ma'naviy tarbiya-mardlik, halollik, qat'iyat, hurmat.

4. Hordiq chiqarish-ruhiy tetiklik va ijobiy emotsiyalar berish.

Bu xususiyatlar o'yinlarni xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismiga aylantirgan.

XIX asrda Yevropa mamlakatlarida harakatli o'yinlar tizimlashtirilib, maktab jismoniy tarbiya dasturlariga kiritildi.

XX asrda esa jismoniy tarbiya fan sifatida rivojlanib, o'yinlarning fiziologik, pedagogic va psixologik asoslari ilmiy jihatdan o'rganila boshladi.

O'zbekistonda harakatli o'yinlar rivoji.

O'zbek xalqining madaniy merosi harakatli o'yinlarga nihoyatda boy.

"Chillak", "quvlashmachoq", "Arqon tortish", "Uloq-ko'pkari", "Topib kel", "Ko'z-ko'r". "Olma terish" kabi o'yinlar bolalar jismoniy va ruhiy rivojiga katta tasir ko'rsatgan.

Mustaqillik yillarida xalq o'yinlarini o'rganish, ularni ta'lim muassasalarida qo'llash, festivallar va musobaqalar orqali ommalashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Xulosa.

Harakatli O'yinlar insoniyatning eng qadimiy jismoniy faoliyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, ular asrlar davomida jismoniy tarbiya, ma'naviy kamolot, harbiy

tayyorgarlik, ijtimoiy tarbiya va hordiq chiqarish vazifalarini bajargan. Bugungi kunda harakatli o'yinlar ta'lim jarayonida, sport tizimida va so'g'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov B. Xalq o'yinlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati.- Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2015.

2. Nematov O. O'zbekiston xalq o'yinlari to'plami.- Toshkent, 2014.

3. Guttmann A. From Ritual to Record: The Nature of Modern Sports.- New York: Columbia University Press, 2004.

4. D.Mandell. History of Physical Education and Sport.- New York : Harper & Row, 1984.

Foydalanilgan saytlar :

www.edu.uz – Maktabgacha ta'lim vazirligi rasmiy sayti.

Qo'shimcha manbalar: UNESCO. Traditional Games and Sports: Cultural Heritage in education. Paris, 2015.